

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO‘K: 891.735.2(575.1):82-31

ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIYNING “MAQOMOTI YUSUF HAMADONIY” ASARI TAHLILI**АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБДУЛХОЛИКА ГИДЖДУВОНИЯ «МАҚОМОТИ ЮСУФ ХАМАДОНИЙ»****ANALYSIS OF ABDULKHALIQ GIJDUVANI'S WORK “MAQOMOTI YUSUF HAMADONI”****Nurmatova Nigora Umarovna** Buxoro davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrası dotsenti,
T.f.n.**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Abdulxoliq G‘ijduvoniý haqida fikr yuritiladi va uning ustozí Yusuf Hamadoniýga bag‘ishlab yozgan “Maqomoti Yusuf Hamadoniý” asari tahlil qilinadi. Mazkur asarda Yusuf Hamadoniý hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma‘lumotlarning berilishi bilan bir qatorda ayrim muammoli ma‘lumotlar ham mavjudligiga e‘tibor qaratiladi va buning sabablari haqida muallifning o‘z nuqtai nazarí bayon etiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается личность Абдулхалика Гидждувония и анализируется его произведение, посвящённое учителю Юсуфу Хамадония - «Мақомоти Юсуф Хамадоний». В этой работе обращается внимание на то, что наряду с ценными сведениями о жизни и деятельности Юсуфа Хамадония, содержатся и некоторые проблемные моменты, а также излагается точка зрения автора относительно причин их появления.

Abstract

This article discusses Abdulkhalik Gijduvani and analyzes his work dedicated to his teacher Yusuf Hamadoni - “Maqomoti Yusuf Hamadoni”. The article highlights that, alongside valuable information about the life and activities of Yusuf Hamadoni, there are also some problematic points, and the author presents his own perspective on the reasons for their occurrence.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniý, “Maqomoti Yusuf Hamadoniý”.**Ключевые слова.** Суфизм, Ходжа Абдулхалик Гидждувани, «Мақомоти Юсуф Хамадони».**Key words:** Sufism, Khoja Abdulkhalik Gijduvani, “Maqomoti Yusuf Hamadoni”.**KIRISH**

Tasavvufning yirik namoyandasi, mashhur avliyo, Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O‘rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosi Xoja Abdulxoliq ibn Abduljamil G‘ijduvoniý o‘z davrning yirik olimlari va tasavvuf namoyandalaridan etarli ta‘lim oladi. Ayniqsa, uning mashhur tasavvuf rahnamosi Abu Ya‘qub Yusuf Hamadoniý (vaf. 1140 y.) bilan uchrashuvi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yusuf Hamadoniý uni so‘fiylik tariqatiga jalb qildi. Tasavvuf tarixida o‘z mahobatli mavqeiga ega bo‘lgan Yusuf Hamadoniý Eronning Hamadon shahrining G‘animiya mahallasida hijriy 440 - milodiy 1048 yilda (ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra 1049 yilda) tug‘ilgan. [7:3,8:19]. U hijriy 535 - milodiy 1141 yilda vafot etgan. Uning qabri Marvda Sulton Sanjar ziyoratgohiga yaqin joylashgan. Tasavvuf ahli Yusuf Hamadoniý maqbarasini “Ka‘bai Xuroson” deb ulug‘laydilar.

Abdulxoliq G‘ijduvoniý o‘zining “Maqomoti Yusuf Hamadoniý” kitobida piri murshidi Yusuf Hamadoniýning surat va siyratlarini bayon qilgan. [1];[2]. Abdulkholiq G‘ijduvoniýning “Maqomoti Yusuf Hamadoniý” asari muqaddima, Yusuf Hamadoniýning muborak o‘g‘itlari, Sanjar ibn Malikshohning maktubi, shayxning tavalludi, axloq va shamoili, shayxning Samarqandga kelish sababi, shayxning vafot tarixi nomli bo‘limlardan iborat. To‘g‘ri, bu asarda G‘ijduvoniý tarjimai hollariga tegishli voqealar, shuningdek, Yusuf Hamadoniýning muridlari(shogirdlari) haqida ham ma‘lumotlar bor. Lekin ushbu kitobni yozishdan asosiy maqsad Hazrat Yusuf Hamadoniýning odob-axloqlari, karomatlari, hikmatlari, ul zoti sharifning tarix oldida qilgan ulug‘ xizmatlaridan elni voqif etish bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abdulxoliq G'ijduvoni ijodini o'rganishda ilmiy adabiyotlar katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, avvalo G'ijduvoni va uning ustozlaridan biri bo'lgan Yusuf Hamadoni haqidagi tarixiy va tasavvufiy manbalarni ko'rib chiqish lozim. Ilmiy adabiyotlar ikki asosiy guruhga bo'linadi: birinchi guruh tarixiy manbalar bo'lib, unda G'ijduvoni hayoti va faoliyati, shuningdek Hamadoniylarning ta'limoti haqida ma'lumotlar mavjud. Ikkinchi guruh ilmiy tahlil va sharhlar bo'lib, ular asarning mazmuni, uslubi, tasavvufiy va ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi.

Asosiy manbalar sifatida G'ijduvoniylarning o'zi tomonidan yozilgan *Maqomoti Yusuf Hamadoni* asari, shuningdek, boshqa sharq olimlarining biografik va tasavvufiy asarlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Najmiddin Kubro va boshqa tasavvufiy mutafakkirlar asarlari G'ijduvoni ijodini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan filologiya va tarix sohasidagi ilmiy maqolalar ham asar tahlilida qo'llaniladi.

Metodologik jihatdan, asarni tahlil qilishda bir necha ilmiy usullar qo'llaniladi. Birinchisi – matnshunoslik va tarixiy-metodik tahlil bo'lib, unda asarning asl nusxasi, uning shakli, mavzusi va mazmuni o'rganiladi. Ikkinchisi – tasavvufiy tahlil, bunda G'ijduvoni va Hamadoniylarning ruhiy-axloqiy mazmuni, murid-shayx munosabati, tarbiyaviy ahamiyati o'rganiladi. Uchinchisi – komparativ metod, ya'ni G'ijduvoni asarini boshqa sharq tasavvufiy va biografik asarlar bilan solishtirish orqali uning noyoblari va ilmiy qimmatini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, kontekstual yondashuv ham qo'llaniladi, bunda asar o'z davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bu yondashuv orqali, asarning mazmuni va muallifning nuqtai nafari yanada chuqurroq tushuniladi. Metodlar to'plami sifatida tarixiy-tahliliy, filologik va falsafiy yondashuvlar birgalikda qo'llanilib, asarning ilmiy va madaniy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

Natijada, adabiyotlar tahlili va metodlar yordamida *Maqomoti Yusuf Hamadoni* asari nafaqat G'ijduvoni ijodining muhim qismi sifatida, balki Sharq tasavvufiy an'analari o'rganish uchun ilmiy manba sifatida ham chuqur tadqiq qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Abdulxoliq G'ijduvoniylarning ta'kidlashlaricha, hazrat Yusuf Hamadoni o'ttiz ikki marta yayov holda haj qilib, Qur'oni Karimni ming marta xatm etgan, tafsir, hadis, fiqh, usul, furu' va kalomga oid 700 ta kitobni yod olgan. Ul zoti sharifning etti yuzdan ortiq shogirdlari avliyolik darajasiga etgan. Asarda Yusuf Hamadoni aksariyat vaqt kunduz kunlari ro'za, kechalari esa bedor – ibodatda bo'lganligi, u tufayli sakkiz yuzta butparast islom dinini qabul etganligi, juda ham ko'p kishilar Haq yo'lini topganligi juda qiziqarli tarzda yoritib berilgan. Abdulxoliq G'ijduvoni juda katta bir hayrat bilan o'zining ustozlari hatti-harakatlarini kuzatib borgan va undan ibrat olib o'zidan keyingi shogirdlariga namuna sifatida so'zlab bergan. Uning guvohlik berishicha, Yusuf Hamadoni taomlarini o'zlari pishirar, kirlarini o'zi yuvar, kiyimlarini o'zi yamardi. Yamoqli kiyimni - yaxshi ko'rardi. Shuni ta'kidlash joizki, o'sha asru ayyomda zarbof to'nlar kiyimoq, zarrin kamarlar bog'lamoq boylar, zodagonlarga rasm bo'lgan edi. Musulmonlar botinni emas, balki zohirni bezay boshlagan vaqtlarida hazrati pining oddiy kiyim, hatto yamoqli kiyim kiyishi zohirparastlarga tanbeh bo'lgan. Yamoqli kiyim - kibru manmanlik kushandasi, kamtarlik belgisidir. Bu-nafsini o'ldirgan, nafsini xoru zor qilgan kishilar libosi hisoblangan. Bu - ichki dunyosini ziynatlagan ahli taqvo, ahlullohlarining libosi. Asarda Yusuf Hamadoniylarning surat va siyratlari o'quvchi ko'zi o'ngida quyidagicha gavdalanadi: Yusuf Hamadoniylarning liboslari jundan bo'lib, malla rang edi. Oz narsa tanovul qilar, ko'pincha arpa non va sirka iste'mol etardilar. Qirq kunda bir bor tovuq go'shti, ba'zan-ba'zan tuya va qo'y go'shti tanovul etardilar. Yetmish besh yil mujarrad (bo'ydoq) yashadilar va keyin uylandilar. Ko'p ro'za tutganlari va riyozat chekkanlari bois qomatlarini egig edi. Hazrat shirin zabon edilar va doimo tabassum bilan gapirardilar... Hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniylarning ta'riflashicha, Yusuf Hamadoni, qotmadan kelgan, ko'rkam, uzun soqoli o'ziga yarashgan, yuzlaridan nur tomayotgan, lablarida tabassum, ko'zlarida ilohiy fayz mehru shafqat balqigan juda ham qadrdon inson bo'lib, uning har bir qadami, har bir aytadigan kalomi, har bir etayotgan ishi namuna, dasturulamal bo'lgan. Ma'lumki, 2018 yilda Abdulxoliq G'ijduvoni tavalludiga 915 yil to'ldi. Shu bois muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning farmoyishlari bilan yurtimizda bir qator tadbir va anjumanlar o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Tarjimonlar filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi Sayfiddin Sayfulloh hamda filologiya fanlari doktori, O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil tadqiqotchisi Nodirxon Hasan tomonidan forsiy tilidan tarjima qilinib Abdulxoliq G'ijduvoniylarning "Maqomoti Yusuf Hamadoni (Risoihi sohibiya) Vasiyatnoma"

risolalari O'zbekiston musulmonlari idorasi, "Movarounnahr" nashriyotida 2018 yilda qayta chop qilindi. Mazkur kitobda kitobxonlarning turli qatlamlarini hisobga olib hamda asarning ilmiy-ommabopligini oshirish maqsadida, asl nusxa-qo'lyozmalar ham ilova qilingan. Kitobda tarjimonlar "Maqomoti Yusuf Hamadoni" ning to'rt nusxasi mavjudligini quyidagicha ta'kidlaydilar. "1. Said Nafisiy tomonidan yagona nusxaga asoslanib, "Risolai sohibiya" nomi bilan nashr etilgan (Abdulg'aliq G'ijduvoni. Risolai sohibiya. Farhangi Eronzamin, I. 1953. 78-101-6.) 2. Kamoliddin Hariri yozgan "Tibyonu vasiyatnoma" asari ichida (Istanbul, Sulaymoni kutubxonasi, Ibrohim afandi bo'limi, № 30.1. 379a-389b. Bu nusxa Nafisiy nashridan ancha mukammal). 3. Abdulg'aliq G'ijduvoni. Maqomoti Yusuf Hamadoni. O'zRFASHI №2533, 20-37-v. (Mahmud Hasaniy va Gulbahor Muzaffar qizi bu asardan ba'zi parchalarni e'lon qilishgan. Qarang: "Xojai Jahon Xoja Abdulg'aliq G'ijduvoni" (Toshkent, 1994, 18-22-6). 4. Mulla Abdulhakim tayyorlagan va Iraj Afshar tomonidan nashr etilgan forscha "Qandiy" asarida qisqacha naql etilgan (Tehron. 1955, 6-16-6)" [2:13]. Tarjimonlar va so'zboshi mualliflari 2018 yilda chop qilingan Abdulg'aliq G'ijduvoni yozgan "Maqomoti Yusuf Hamadoni (Risolai sohibiya) * Vasiyatnoma" ning o'zbekcha tarjimasini "Risolai sohibiya", "Tibyon" va O'zRFASHI nusxalarini qiyoslagan holda amalga oshirganliklarini ta'kidlaydilar. Mazkur kitob tarjimonlarning ko'p yillik ilmiy-ijodiy yutuqlari asosida juda qimmatli materiallarni qamrab olgan. Har bir o'quvchi undan boy ma'lumotlar olishi mumkin. Manbalar bilan ishlashning o'ziga xos qiyinchiliklari borligini har bir izlanuvchi yaxshi biladi. Juda katta mehnatni talab qilgan mazkur tarjima uchun kamina tarjimon ustozlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Shuni ta'kidlash joizki, asrlar osha xattotlar tomonidan yozib mazkur asarning ko'paytirilgan nusxalariga har bir hattot o'zining xayolot olami tasavvurlari bilan ham qo'shimcha ma'lumotlar kiritgan ko'rinadi. Chunki, "Maqomoti Yusuf Hamadoni" asarida ba'zi mantiqsizliklar ham uchraydi. Bu holni zukko o'quvchi darhol anglab olishi tabiiy. Masalan, "Maqomot"da, Yusuf Hamadoni yuksak vatanparvarlik xususiyatlariga ta'rif berish maqsadini ko'zlab, u zot harbiy ishlarda qatnashgan deya ta'kidlab, quyidagi misol bilan isbotlashga urinilgan. Ya'ni, "Chata va To'qmoq lashkarlari bostirib kelganida ularga qarshi jang qilardi" [1: 15];[2:25]. "Do'stlaridan birortasi Chata, To'qmoq va Urus qo'shinlariga qarshi janglarda shahid bo'lganini eshitsa, janoza namozini o'qirdi. Biron narsa yoki biror kishini la'natlamas va Chingizni duoibad qilmasdi." [1:18];[2:35]. Chata boshqacha Jete nomi bilan ham yoziladi. Ma'lumki, mo'g'ullar Chingizxon boshchiligidagi 1219-yilda Movarounnahr erlariga hujum qilib, 1220-1221 yillarda to'liq bosib oladi. Chingizxon o'z hukmronligining so'nggi davrlariga kelib 1224-yilda o'z qo'l ostiga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o'rtasida taqsim qiladi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr erlari Chingizning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga beriladi. XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga Yettisuv, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'uliston va Movarounnahr bo'linib ketadi. Rus sharqshunos olimi Akademik V.V.Bartold Chig'atoy davlatining Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi qismidagi aholini mo'g'ul qabilalarini turklashgan bo'lishiga qaramay, qadimgi mo'g'ul an'analari hanuzgacha saqlab qolgan deb yozma ma'lumot qoldirgan. Sharqiy mo'g'ul turkmanlashgan qabilalar Movarounnahrda yashovchi qardosh mo'g'ul turklashgan qavmlarini mensimasdan karaunas, ya'ni aralashgan (metis) xalq deb ataganlar. Akademik fikrini davom ettirib, Movarounnahrda yashovchi turkiylashgan mo'g'ul qavmlar Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi mo'g'ul qabilalarni pisand qilmay jete (jeta), ya'ni bosqinchilar deb atashganlarini ta'kidlaydi.[3:154],[4:36] Demak, jetelar Chig'atoy ulusining bir qismi bo'lgan mo'g'ulistonliklar bo'lib, ular o'n to'rtinchi asrda Buyuk Amir Temur imperiyasiga qarshi turgan, tahdid qilgan. Yusuf Hamadoni 1141-yilda(XII asrda) vafot etgan bo'lsa, mazkur bosqinga qanday qilib o'z munosabatini bildirishi mumkin, yoki mo'g'ul bosqiniga qarshi Vatan himoyasiga otlanganligini qanday tushunish mumkin. "Maqomot"dagi ana shunday ayrim mantiqsizliklarni, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xattotlar tomonidan (asardagi voqealar ta'sirchanligini oshirish maqsadida) Yusuf Hamadoni yozgan vatanparvarlik xislatlarini bo'rttirib ko'rsatishga urinish bilan izohlash mumkin.

Shu o'rinda atoqli olim va ulkan fan tashkilotchisi I.M.Mo'minov "Bedilning falsafiy qarashlari" asaridagi Movarounnahrda so'fizm-tasavvufning yoyilishi borasidagi fikrlarini o'rganish mazkur masala bo'yicha mantiqiy xulosa chiqarishga yordam beradi. I. Mo'minov tasavvufning falsafiy ta'limot sifatida dastlab VIII asrda yuzaga kelib, Movarounnahrda Eron orqali kirib kelganligini va XI-XII asrlarda bu erda katta ta'sirga ega bo'lganligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, so'fizmga murakkab falsafiy yo'nalish sifatida baho berarkan, alloma unda turli xil oqimlar va yo'nalishlar mavjudligini, tasavvufni o'rganish alohida mukammal bir tadqiqotni talab etishini, tasavvufning eng

FALSAFA

muhim yo'nalishlarini tahlil qilish lozimligini ta'kidlaydi. [6;284-285b] Alloma so'fizm Movarounnahrda, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida XI asrning 2- yarmi va XII asrning boshlarida, ya'ni feodal o'zaro urushlar va ko'chmanchi qabilalar bosqinining tobora kuchayayotgan davrida yoyila boshlaganligini ta'kidlaydi. V.V.Bartoldning "Turkiston madaniy hayoti tarixi" kitobiga asoslangan holda Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf oqimi XII asr mutafakkiri bo'lgan Yusuf Hamadoniylar maktabidan boshlanganligini alohida e'tirof etadi. I.Mo'minov Yusuf Hamadoniylar maktabi bir xillikka ega bo'lmaganligini, unda turli oqimlar kuzatilishini, ulardan eng yirik oqim ikkita ekanligini alohida izohlaydi. Birinchisi, Yusuf Hamadoniylar shogirdi Abdulxoliq G'ijduvoniylar nomi bilan bog'liq yo'nalish, ikkinchisi, Yusuf Hamadoniylar muridi Xoja Ahmad Yassaviy yo'li bilan bog'liq bo'lgan yo'nalish sifatida ta'riflaydi. Birinchi oqim asosan, shaharda va shahar atrofidagi hududlarda, ya'ni nisbatan iqtisodiy o'sish sharoitida yuzaga keldi va yoyildi; u real hayot bilan bevosita bog'liq edi va odamlarni mehnat qilishga, hunarmandchilikka chorlar edi. Xususan, Yusuf Hamadoniylar va Abdulxoliq G'ijduvoniylar tasavvuf ta'limoti shaharlik mehnatkashlar manfaatlariga mos kelar edi. I.Mo'minov "hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar Vatan, xilvat dar anjuman"dan iborat bo'lgan asosiy qoidalar mavjudligini va bularning aynan shaharliklarga mos ekanligini e'tirof etadi.

Yusuf Hamadoniylar etikd'zlik hunariga ega bo'lgan, u Buxoro va Samarqandni ko'chmanchi qabilalar hujumidan himoya qilishda bevosita ishtirok etgan, deya ta'kidlar ekan, I.Mo'minov Yusuf Hamadoniylar o'z shogirdlarini mehnat qilishga, hunar egallashga, harb ishini o'rganishga chaqirganligini alohida uqtiradi. Alloma bu oqimni (ya'ni, xojagon tariqatini N.N) tasavvufning o'ta mistik oqimi bo'lgan deyish mumkin emas, u o'z davrida adabiyot va ijtimoiy fikr taraqqiyotida progressiv rol o'ynagan degan ilmiy xulosaga keladi. Olimningsovet mavkurasi hukmronligi davrida katta jasorat bilan ta'kidlagan tasavvuf haqidagi ana shunday ijobiy xulosalari mazkur maqolada qo'yilayotgan masalaga mantiqiy yondashishga yordam beradi.

Abdulxoliq G'ijduvoniylarining "Maqomoti Yusuf Hamadoniylar" asari ustozlari bo'lmish Yusuf Hamadoniylarga nisbatan yuksak ehtirom ramzi sifatida juda qimmatlidir.

XULOSA

Abdulxoliq G'ijduvoniylar ijodida "*Maqomoti Yusuf Hamadoniylar*" asari alohida o'rin tutadi. Ushbu asar G'ijduvoniylarining ustoziga bo'lgan ehtiromi va tasavvufiy ta'limotini chuqur anglashini namoyon etadi. Asarda Yusuf Hamadoniylar hayoti, faoliyati va murid-shayx munosabati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan, shuningdek, muallifning o'z nuqtayi nazari orqali ayrim muammoli va bahsli jihatlar ham yoritilgan.

Asarning tahlili shuni ko'rsatadiki, G'ijduvoniylar ijodining mazmuni nafaqat biografik, balki ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ustoz-shogird an'anasi, ruhiy etuklik va insoniy fazilatlarni rivojlantirish masalalari asarda markaziy o'rin tutadi. Metodologik jihatdan, matnshunoslik, tasavvufiy va kontekstual tahlil usullari qo'llanilib, asarning ilmiy va madaniy qiymati yanada oshadi.

Shu bilan birga, asarni o'rganish Sharq tasavvufiy merosi va insoniy qadriyatlarni chuqurroq tushunishga, shuningdek, G'ijduvoniylar va Hamadoniylar ta'limotini zamonaviy ilmiy kontekstda tadqiq etishga imkon beradi. Natijada, "*Maqomoti Yusuf Hamadoniylar*" asari nafaqat tarixiy, balki falsafiy va axloqiy jihatdan ham boy manba sifatida qadrlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar. Maqomoti Yusuf Hamadoniylar. - T.: "Yangi asr avlodi". 2003.
2. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar. Maqomoti Yusuf Hamadoniylar (Risolai sohibiya)* Vasiyatnoma.T.: "Movarounnahr", 2018.
3. Bartold V.V. Istoriya Turkistana. Soch.T. II. Ch. 1. M.:Izdatelstvo vostochnoy literatury, 1963.
4. Bartold V.V. Ulug'bek i ego vremya. Soch.T.II. Ch 2. M.:Izdatelstvo "Nauka",1964.
5. G.Navro'zova, N.Nurmatova. Yusuf Hamadoniylar – etti pinning tabarruk ustozlari. T.: "MASHHUR-PRESS", 2016.
6. I.Muminov. Filosofskie vzglyady Bedilya. Izbrannye proizvedeniya. Tom 1, Izdatelstvo "Uzbekistan", Tashkent-1976.
7. Xoja Yusuf Hamadoniylar. Hayot mezonlari (Rutbat ul-hayot). Odobi tariqat. Koinot va inson. T.:O'zbekiston musulmonlari idorasi "MOVAROUNNAHR", 2018.
8. Faxriddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot.T.: "Abu Ali Ibn Sino", 2004.